

## MAKTABLARDA O'QITALAJAK MUSIQA TA'LIMIGA BIR NAZAR: MUSIQA TA'LIMINING SHAKLI VA USULLARI

*Toshkent shahar Sergeli tumanidagi*

*322-maktab musiqa fani o'qituvchisi*

***To'xtayeva Gulmira Baxromkulovna***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida musiqa ta'liming o'qitilishi, musiqa idroki, raqs va ritmik harakatlar, cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyalarini o'qitilishi haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Musiqa, cholg'u, qo'shiq, ritm, savod, tembr, estetika, ta'lif, tarbiya.

### A LOOK AT MUSIC TEACHING IN SCHOOLS: FORMS AND METHODS OF MUSIC TEACHING

Sergeli district of Tashkent

Music teacher of school 322

Tokhtayeva Gulmira Bakhromkulovna

**Abstract:** This article discusses the teaching of music education in general secondary schools, music perception, dance and rhythmic movements, instrumental and creative activities.

**Keywords:** Music, instrument, song, rhythm, literacy, timbre, aesthetics, education, upbringing.

Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning eng asosiy va ancha murakkab majmualardan biri bo'lib, bolalalrning musiqa san'ati asarlarining tushinishida ijo etishga o'rgatishishalrinikichikyoshdan boshlashnitaqozo etadi. Shunga ko'ra, estetik tarbiyalash mavsadida barcha maktabalrda va maktabdan tashqari muassasalarda bolalarning badiiy tarbiyasida musiqa, rassomlik, haykaltaroshlik bilan shug'ullanishiga sharoit yaratish alohida nazarda tutilgan. Musiqa bolalar va yoshlarni Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning g'oyat ta'sirchan va samarali vositasi sifatida

ham ahamiyatga egadir. Avvalo darsda musiqaning mauyan mohiyatini tushuntirishda yordam beruvchi darslarinng muayan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi. Yil, chorak, mavzulari, milliy musiqamizni dasturga kiritishi darsni yanada qiziqarli va mazmunli o‘tish uchun yordam beradi. Ikkinchidan musiqa savodi mashg‘ulotlarining mustaqil qismi bo‘lib emas balki dars mavzuini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Uchinchidan dars mavzusining qiziqarli bo‘lish va ta’lim samaradorligini oshirishi maqsadida raqs bolalar cholg‘u asboblari shiqildoq doiracha, qoshiq va boshqalarda musiqaga jo‘r bo‘lish hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatlari qo‘llaniladi. Ushbu faoliyatlar zamirada o‘yin xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o‘quvichlarda katta qiziqish o‘yg‘otadi. Binobarin, mashg‘ulotlarda qo‘llanadigan barcha musiqa faoliyatlari dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan o‘zviy bo‘lagi sifatida xizmat qiladi. Bu jihatdan musiqa darsi kompleks (integrak aralash) dars tipiga kiradi va unda darsning umumiyligiga bo‘ysundirishi, o‘zaro mantiqan bog‘lanishi, qo‘yidagi musiqa faoliyatlariga amal qiladi. Bu jihatdan sifatida xizmat qiladi. Bu jihatdan musiqa darsi kompleks (integrak aralash) dars tipiga kiradi va unda darsning umumiyligiga bo‘ysundirishi, o‘zaro mantiqan bog‘lanishi qo‘yidagi musiqa faoliyatlariga amal qiladi. Musiqa idroki (tinglash) kuylash, musiqa savodi, raqs va ritm harakatlari, chapakda va cholg‘ularda chalish, musiqa ijodkorligi va boshqalar. Musiqa idroki dars mashg‘ulotlarida yetakchi faoliyat sifatidamuhim o‘rin tutadi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma’lum asar tinglanib ijro etiladi va uning badiiy jihatlari dars mavzusiga doir oddiy musiqiy pedagogik yo‘sinda tavsif etiladi. Tingalsh orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqaviy xususiyatlari janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi hamda badiiy mazmuni haqidagi ma’lum bilimlarga ega bo‘lishadi. Ikkinci holatda musiqa asarlari avval tinglanib so‘ng u yoki bu holati ko‘ylash orqali o‘rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalilaniladi. Masalan o‘zganiladigan qo‘shiq avval o‘qituvchi ijrosida yoki magnit orqali bir ikki marta tinglaniladi, asar xususiyati haqidagi suhbat qilinadi so‘ng o‘rganishga kirishiladi. O‘qituvchilarga o‘zbek musiqasi tinglashning

o‘ziga xos xususiyatlarga doir tushuncha va tushuncha va tasavvur hosil qilish ancha murakkab uzoq vaqt davom etadigan. Jarayondir. O‘quvchilar o‘qituvchi yordamida musiqa asarini eshitib tahlili qilish qobiliyatlarini asta-sekin o‘stiribboradilar. Raqs musiqasi avval tinglaniladi kuy tavsiflari anglab olingandan so‘ng, raqs xarakatlari ifodasi o‘rganiladi. Ko‘pincha asar bir necha faoliyat o‘yg‘unligida: tinglash kuylash, raqs xarakatlari va boshqalar o‘rganiladi. Bunday mashg‘ulot usuli asarni puxta o‘rganish va ayni holda kompleks malakalarining rivojlanish uchun imkon yaratadi. Musiqa darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zamirida mantiqan o‘zaro bog‘lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi.

*Musiqa savodi.* Barcha faoliyatlari nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg‘uloti (tinglash, ko‘ylash, raqs va boshqalar) qo‘llanmasi uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o‘rganiladi va uning xususiyatlari (janr tuzilishi, ijrochiligi va boshqalar) haqidagi yangi tushunchalar hosil bo‘ladi. Shu bois musiqa savodi faoliyatida o‘quvchilarning umumiy musiqaviy bilim tushunchalari majmuini (musiqa shakllari, janrlari, cholg‘u ijrochiligi, halq va bastakorlik musiqasi ularning fiklari, milliy musiqaning maqomiy uslublari klassik musiqa nota savodi va boshqalar) shakllantirishga asosiy e’tibor qaratiladi.

*Raqs va ritmik harakatlar.* Bu faaoliyatda o‘quvchilaring musiqiy qobiliyatları xusuan, ritmik usul to‘yg‘usi va asar badiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga ularning jismoniy rivojlantiri uchun ham muhimdir. Bu ayniqsa boshlang‘ich sinf ‘quvchilari uchun nihoyatda zarur. Shuni alohidav ta’kidlash joizki, o‘zbek halqi milliy raqs san’ati bilan olamga dong taratgan. Ammo maktab ta’lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog‘i deyarli yo‘q darajada ekanligini nazarda tutsak unda musiqa darslari mazmunida milliy raqs unsurlarini nafadar zarurligi ma’lum bo‘ladi. Shu bois musiqa o‘qituvchisi milliy raqs san’atimizning oddiy harakatlarini bilish buugngi davr talabidir.

*Chapakva bolalr cholg‘u asboblarida chalish* faoliyatları, ham o‘qituvchilarinng musiqaviy o‘quv qobiliyatlariga hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun muhimdir. Bu faoliyat boshlang‘ich sinflarda milliy cholg‘u asboblari bilan chalishni va ularning tovush tembrlarining anglab olish bilan o‘zviy bog‘lanib amalga oshirilishi

zarur. Bunda doirachalar,qayroq, qoshiq, kichik safoyillar kabi o'rma cholg'u asboblaridan foydalanib o'qituvchi ijrosi va magnit tasmalar orqali tarqaladigan kuylar ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

*Kuylash faoliyati* o'quvchilarinng musiqa o'quv qoliyatlarini hamda ijrochilik malakalarini rivojlantiirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'uchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlarining ijrolarini eshitib ko'zatadi va ular bilan birga jo'rnavozlik qilishag intiladi. Zotan, tinglash va kuylash o'quv materialalri ta'lim mazmuning tashkil etadi. Ularning kuylash va tingalsh faoliyatları vositasida o'rganishi bilan birga cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatları bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyalar vositasida imkoniyatlari yaratiladi. Yangi o'quv dasturida musiqa ijodkorligi faoilyati ilk bor kiritilgan. Bu faoliyat bolalada musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakalarini o'stiradi borish uchun katta ahamiyatga egadir. Bu faoilyat o'quvchi ijrosida doira chertib jo'rnavozlik qilish kuy ohangilgi mos harakatlarni xususan raqs haraktlarini topish, she'r parchasiga kuy bastalash kabi ijodkorlik amalyotlari bilan bajariladi.

*Musiqali harakatlar cholg'uchilik va ijodkorlik* faoiltyalarini amalga oshirishga o'yin uslublaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu faoliyatlar zamiri ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liqidir. Yangi o'quv dasturida tinglash va kuylash uchun asarlar talab darajasida berilgan.bu o'quvchilarida asarlarini sinfimkoniyatlari va o'quv yilining muhim sanalarida muvofiq tarzda tanlab o'qitish imkoniyatlarini beradi. Ayni bir paytda o'quvchi dasturga kiritiladigan ammo badiiy yuksak, tarbiyaviy jihatdan muhim,o'quvchilarinng yoshlik xususiyatlariga, idrok amalyotiga mos bo'lган yangi asarlaridan keng foydalanish xuquqiga ham egadir. Nota savodi, cholg'uchilik, raqs va harakatlar, shuningdek musiqa ijodkorligi faoliyati tavsif etilagn asarlar ham shartli ravishda berilgan. Dars sharoitiga qarab ularni almashtirish mumkin. Bu esa darslarni rejallashtirishda va darslarga tayyorgarlik ko'rishda ijodiy yondoshishni toqozo etadi. Bunda shu narsaga e'tiborni qaratmoq lozimki, garchi dasturda asarlar va mashg'ulotlar mazmuni har bir faoliyat turiga doir alohida ko'rsatilagan bo'lsada,ammo darslarni rejallashtiirishda va ularni o'tishida musiqa faoliyatları dars

mazmunidan kelib chiqish va uning mohiyatini olib berish lozim bo‘ladi. Shunday qilib, darsda musiqa faoliyatları mantıqan birlashib mazmunan topshiradi.

Musiqa o‘qituvchisi o‘qitishning turli usulalriga munojat qilmog‘ilozim. Udavlat tomonidan chiqarilgan dastur asosida tuo‘ilagan rejasiga suchnib qolmasdan, o‘zi darsga ijobiyyondoshib mstalgan faoliyat turidan darsni boshlashi musiqa o‘qitishning optimal metodalaridan umumiy foydalanib o‘zi ijod qila bilishi lozim. Darsning noan’anaviy usularidan foydalanishi va darsning ijodiy tashkil qilish o‘quvchilarni bilimga qiziqishida katta rol o‘ynaydi. Bunda noan’anaviy usulalrdan dars-konsert, dars munozara kabi integralalshgan dars shakllarini o‘quv jara1nia qo‘llash o‘quvchilarni musiqiy qoliyatini rivojlantiiradi, ularni mustaqil fikrlash diorasini dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday darslarda bola o‘zini erkin his qiladi. Bu darsda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni to‘g‘ridan-to‘g‘ri bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan balki o‘quchlarning turli-tuman faoliyatlarini tashkil qiladi. Dars mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘rsatma materillar va suratlardan (musiqa savodiga oid jadvalalr o‘rganiladigan qo‘sinqning ko‘yi va so‘zi yozilagan plakat, ashula yoki biror musiqa obrazalarini ifodolovchi badiiy suratlar va qo‘sinq to‘plamlari, o‘quv filmlari va hokozolar) mumkin qaadr ko‘proq foydalanishi lozim. Dars samaradorligini oshirishda o‘quvchilar bolimi va malakalarini baholash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bu borada o‘z xususiyatlari bilan farq qiladi. Bu masala ham kompleks yondoshishi lozim. Boholanishi lozim bo‘lgan o‘quvchilarning olidan belgilashning va ularga rars davomidv o‘tilgan va ularga dars davomida o‘tilgan va o‘tilayotgan mavzular yuxasidan savollar berib borilishi, ularni ko‘proq fikr bildirishga toritsh va amaliy faoliyatga ko‘proq jalb etish yo‘li bilan hamda malakalarini aniqlash va odilona baholash lozim bo‘ladi. Sinf sahnasiga yakka chiqarib so‘rash boshqalarni zeriktiradi va vaqtan unumli foydalanishga halaqit beradi. Bundan tashqari bu uslub darsning mantiqiy davomligini va sinf faolligini so‘saytirishga sabab bo‘ladi. Tayyorgarlikyaxshi bo‘lgan o‘quvchiga musiqa sohasida muvafaqqit qozingan iqtidorli sinflarda dastur talabini bir oz oishirish huquqi beiladi. Ayni vaqtida o‘quvchilaragyakka tartibda musiqa o‘rgatish uyushtirishga e’tibor berishi, bu ishga ota-onalar jamoatchiliginin jalb etish lozim. O‘qitish davrida musiqa sohasida

muntazam ravishda olib borilish natijasida o‘quvchilar musiqa savodiga ega bo‘lib, musiqani sevadigan, yirik musiqa asarlarini, shuningdek, konsertlarni, radio va televideniye orqali beriladigan musiqali eshittirishlarni mehr qo‘yib tinglaydigan,badiiy havaskorlik to‘garaklarida yetarli tayyorgarlik bilan faol qatnashadigan kishilar bo‘lib yetishishlarikerak. Bu tadbirlarni amalga oshirishda sinfrahbarlari va ota-onalar musiqa o‘qituvchisiga yaqindan yordam berishlari zarurdir. Bu sohada ayrim maktablarda qo‘lga kiritilagn muvofaqqiyatlar boshqa maktablar uchun namuna bo‘la oladi, shuning uchun ularning ishi tajribalarini alamashtirish muhimdir. Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida ko‘rsatuv isbotlariinng hamma turlaridan televizor, magintafon, mingafon, texnik vositalaridan foydalanish musiqiyangiliklardan hamda ijtimoiy fanlar pedagogika, xususiy mutaxasislik bilimi va malakalari darslarni olib borish ko‘zda tutilgan. Musiqa fanning zamonaviy tuzilishi, mantiqiy butunligi turli musiqaviy faoliyatdan iborat bo‘lib bunda; - musiqa tinglash, musiqa savodi, xorda kuylash musiqa xarakteriga xos haraktalar bajarishi (masalan chapak chalish) va cholg‘ular musiqaga ritmik jo‘r bo‘lish musiqa ijodkorligi kabilar asosiy o‘rin tutdi. Shunisi quvonarlici, ayniqsa mustaqillikka erishganimizdan so‘ng maktablarimizda milliy merosimizni, musiqamizni singdirish hamda turli xildagi texnologiyalardan foydalanish keng yo‘lga qo‘yildi. Pedagogik texnik va texnologiyasini o‘rganish pedagogik mahoratni muvofaqityalt egallashga yordam berdi. Yangi texnologiyada jamoa bilan kirishibketish, o‘z ishidan kuchli va zaif tomonlarini bilish;-o‘zbilimlarini doimo to‘ldirib borish tarbiyasining mahorati yo‘lidan muvafaqqityali olg‘a siljishni ta’minlaydi. Musiqa pedagokasi fanning zamonaviy tizimini tuzilishi pedagogikaning o‘tilishida uning metodikasidan keng tarbiya nazariyasi va amaliyotini o‘tish maqsadga muvofiq ekanligini isbot qilmoqda. Avvalo musiqa darsi tarbiya darsi hisoblanib, tarbiyasining bir necha metodlari mavjud.

1. Odob va ma’naviy ongni shaklalntirishi metodalari: suhbar, taqriz namuna.
2. Faoilyatlarni tahlil qilish muomala, munosabat, ijtimoiy xulq munosabatlari;-amaliy o‘yin, amaliy-hayotiy ma’naviy mashqlar, topshiriqlar.
3. Ma’naviy ijodiy metodlar.

4. Rag’batlantirish va fe’l atvorini nazorat qilish metodlari.

Musiqqa darsi an’anaviy va noan’anaviy dars shakllaridan iborat bo‘ladi.

1. An’anaviy ta’limining bosh maqsadlari; aniq, so‘zsiz qo‘loq solib, bajaruvchi, o‘quvchilarni tayyorlaydi, ya’ni dars faoliyatları izchilligiga bo‘ysunadi. Ta’limni maqsadi: - bilim ko‘nikma, malakalarini shakllantirishimiz.

2. Noan’anaviy ta’limning bosh maqsadi: jahon standartlarigajavobbera oladigan o‘quvchilarni tarbiyalaydi. Mustaqil faoliyat yurita oladigan, o‘z-o‘zini tarbiyalay oladigan o‘z ustida izlanadigan, mustaqil fikr yurita oladigan o‘quvchilarni tarbiyalaydi. Bunda og‘zaki, amaliy ko‘rgazmali taqqoslash, o‘yin, musiqiy uquvi bo‘sh bo‘lgan o‘quvchilar bilan ishslash to‘g‘ri keladi. O‘quvchilarni asosan milliy ruhda tarbiyalash maqsadga muvofiqdir.

Hozirgi kunda maktablarda musiqqa darslari ancha murakkablashgan bo‘lib, musiqiy bilimlarni oshirish maqsadida turli hil uslublardan foydalanilgan holda o‘tish bosh vazifamizdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ta’lim taraqqiyoti” O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligining axborotnomasi 6-maxsus soni. Umumiyl o‘rtta ta’limning DTS va o‘quv dasturi. “Sharq” nashriyoti 1999 yil.
2. O. Fayziyeva. O‘quvchilarda musiqiy nafosat tarbiyasini shakllantirishi yo‘llari. Toshkent 1992 yil.
3. Maktabda musiqqa metodikasidan ma’ruzalar matni. 1990 yil.
4. H.Nurmatov. N. Norxo‘jayev, A. Mirrahimov “Musiqqa” 3-sinf uchun darslik G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent 2001 yil.
5. Н.Г. Дмитреева., О. Черсиваненко. Методика музыкального воспитания в школе., Москва 1990 года.
6. M. Ochilov “Muallim qalb me’mori” Saylanma Toshkent. O‘qituvchi 2000 yil.